Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320654

ta'minlashning ustivor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

22. Tuychiyev A.J., Ostonokulov A.A., Ibragimov K.Sh., Tursunov A.S. Byudjet hisobi: Darslik. - T.: "Iqtisod-Moliya", 2018. 316 b.
23. T.Malikov, N.Haydarov. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. 2007
24. T.C. Маликов, H.X. Хайдаров. Финансы: государственные финансы. Учебное пособие. Экономика и финансы. Ташкент. 2009.

DAVLATNING BUDJET TUZILISHI VA UNI SHAKLLANTIRISH XUSUSIYATLARI

Qahramanova Marjona Akmal qizi
Bank-moliya akademiyasi, ikkinchi bosqich magistranti
narzilmirvoshi@gmail.com


Annotatsiya: Ushbu maqola davlatning budjet tuzilishi va uni shakllantirish xususiyatlarini o'rganadi. Unda davlat byudjeti tuzilishining asosiy tarkibiy qismlari, ya'ni daromadlar va xarajatlar qismi, hamda ularni shakllantirishda davlatning moliya siyosatiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek, davlat byudjeti shakllantirilishining mamlakatning iqtisodiy holati, ijtimoiy ehtiyojlar va xalqaro moliyaviy majburiyatlarga mos ravishda qanday o'zgarib borishi kerakligi haqida fikr yuritiladi. Budjet tuzilishining samarali bo'lishi uchun davlatning iqtisodiy holatini to'g'ri baholash, daromadlar va xarajatlarni to'g'ri taqsimlash zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Budjet, budjet mablag'lari, davlat moliyasi, nazorat, resurslarni taqsimlash, moliyaviy monitoring, davlat sektori, davlat byudjeti, boshqaruv mexanizmi, moliya resurslar, budjet siyosati, moliyaviy boshqaruv, budjet tizimi.

Davlatning budjet tuzilishi va uni shakllantirish xususiyatlari mamlakatning moliyaviy tizimini shakllantiruvchi asosiy omillardan biridir. Budjet, davlatning moliyaviy siyosatini amalga oshirishda, ijtimoiy va iqtisodiy dasturlarni moliyalashtirishda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun budjet tuzilishi aniq va samarali bo'lishi kerak, bu esa davlatning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi.

Davlatning budjet tuzilishi turli darajadagi budjetlarning turlarini, har bir budjet bo'g'inining tayinlanishini, turli pog'onadagi budjetlar o'rtasida daromad va xarajatlarning taqsimlanishini, ularning amal qilish tamoyillarini, markaziy hukumat va mahalliy hokimiyat organlarining budjet tizimini boshqarishdagi vakolatlarini belgilab beruvchi yuridik me'yorlarga asoslanadi. Budjet tizimi mamlakatda amal qiluvchi barcha darajadaga budjetlar yig'indisini bildiradi. Demak, Budjet tuzilishi mamlakatning davlat budjeti va budjet tizimini, uning bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tashkil qilish shakllarini, budjet tasnifini, budjet tizimiga kiradigan barcha darajadagi budjetlar faoliyatining huquqiy asoslarini, budjetlar tarkibi va tuzilmasini, budjet mablag'larini shakllantirish va sarflashdagi tartib-qoidalar va boshqalarni belgilab beradi (1-rasm).


Published: 23.12.2024
Cite this article: Qahramanova Marjona Akmal qizi (2024). Davlatning budjet tuzilishi va uni shakllantirish xususiyatlari. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320654
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.



1-rasm. Budjet tuzilishining tarkibi[60]

Budjet tuzilishining qanday tuzilganligi mamlakatning ma’muriy-hududiy tuzilishiga va hukumat organlarining vakolatlari taqsimotiga bog‘liq bo‘ladi. Markaziy hukumat bilan mamlakatning ma’muriy-hududiy tuzilmalari (viloyat, tuman, shaharlar kabi) o‘rtasida hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishiga ko‘ra barcha davlatlar unitar va federativ (federativ davlatlarda davlat tuzilishining ikki shakli – federativ va konfederativ davlat tuzilishi mavjud) davlatlarga bo‘linadi. Unitar va federativ (konfederativ) davlat tuzilishining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagi chizmada aks ettirilgan.

Unitar (yagona) davlat – bu tarkibidagi ma’muriy-hududiy birliklar (tuzilmalar) o‘z davlatchiligiga yoki muxtoriyatiga ega bo‘lmaydigan davlat tuzilishi hisoblanadi (2-rasm):




2-rasm. Ikki pog‘onali budjet tizimi amal qiladigan Unitar davlatlar[61]

Unitar davlatda mamlakatda yagona konstitutsiya, hamma uchun umumiy bo‘lgan huquq tizimi va yagona hokimiyat organlari, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayonlarni

[60] S.U.Mehmonov, Z.X.Karimova, A.S.Tursunov. Budjet tizimi. darslik.Toshkent. 2017. 437 b.
[61] S.U.Mehmonov, Z.X.Karimova, A.S.Tursunov. Budjet tizimi. darslik. Toshkent: 2017 y. 437 b.

markazlashtirilgan boshqarish tizimi amal qiladi. Unitar davlatlarga Qozog‘iston, Yaponiya, Shvetsiya, Fransiya, Polsha, O‘zbekiston kabi davlatlar kiradi.

Unitar davlat sifatida O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimi ikki bo‘g‘indan – respublika budjeti va mahalliy budjetlardan tashkil topadi. Bu budjetlar mamlakatimizdagi davlat budjeti amal qilishining tashkiliy shakli bo‘lib xizmat qiladi. Davlat budjeti o‘z ichida respublika budjetini, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetini va kengtarmoqli mahalliy budjetlarni birlashtiradi (3-rasm):



3-rasm. O‘zbekiston Respublikasi budjet tuzilmasi[62]

O‘zbekiston Respublikasi budjet tuzilmasining bo‘g‘inlari ham o‘z navbatida tarkibiy tuzilishga ega. Davlat budjeti (ko‘pchilik hollarda davlat maqsadli jamg‘armalarisiz Davlat budjeti deb yuritiladi) quyidagi darajadagi budjetlardan iborat (4-rasm):



4-rasm. Davlat budjeti tuzilmasi[63]

Respublika budjeti – davlat budjetining umumdavlat ahamiyatiga molik tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Mahalliy budjet – davlat budjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, unda ma’lum ma’muriy birlikning daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining budjeti – davlat budjetining Qoraqalpog‘iston Respublikasi pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, mazkur budjetda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek

[62] S.U.Mehmonov, Z.X.Karimova, A.S.Tursunov. Budjet tizimi. darslik. Toshkent: 2017 y. 437 b.
[63] O‘zbekiston Respublikasi “Budjet kodeksi”, 2014.

moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti tuzilmasiga Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlari va shaharlarining budjetlari kiradi.

Budjetni shakllantirish jarayoni mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlariga javob beradigan holda amalga oshiriladi. Davlat organlari, iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy barqarorlikni saqlash, milliy xavfsizlikni ta'minlash kabi maqsadlarni amalga oshirish uchun budjet mablag‘larini to‘g‘ri va samarali taqsimlashni rejalashtiradilar. Bu jarayon, albatta, yuqori darajadagi rejalashtirish, tahlil qilish va monitoringni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

25. O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet kodeksi” 2013-yil 26-dekabrdagi 360-sonli qonuni.

26. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyundagi «Budjet mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» №PF-100-sonli Farmoni

27. Malikov T.S. “Budjet-soliq siyosati” T.: “Iqtisod-moliya” 2019 y.

28. Mamanazarov A.B. Mahalliy budjetlarni barqarorlashtirishda soliqlarning rolini oshirish masalalari: i.f.n. ... avtoreferat. – T.: BMA. 2002. –22 b.

29. Mansurov M.A. Davlat budjetini ijro etishda budjet ma’lumotlarning ochiqligini ta’minlash va markazlashgan budjetdan voz kechishning ahamiyati // Moliya va bank ishi elektron ilmiy jurnali. – T. BMA.,2019 (noyabrdekabr). - №6. –B. 58-67.

30. Aaskoven, L., (2018) Budget institutions and taxation. Public Choice, 174(3-4), pp.335-349.

31. S.U.Mehmonov, Z.X.Karimova, A.S.Tursunov. Budjet tizimi. darslik.Toshkent. 2017. 437 b.

32. S.U.Mehmonov, Z.X.Karimova, A.S.Tursunov. Budjet tizimi. darslik. Toshkent: 2017 y. 437 b.

33. O‘zbekiston Respublikasi “Budjet kodeksi”, 2014.

DAROMAD SOLIG‘I VA UNING IQTISODIYOTDAGI O‘RNI

Chorshanbayev Umrzoq
Guliston Davlat Universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi o‘qituvchisi
Eshbekov Alisher Iskandar o‘g‘li
Guliston Davlat Universiteti magistri
Mamarayimov Asadbek
Guliston Davlat Universiteti “Ijtimoiy-iqtisodiy” fakultet talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola daromad solig‘ining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini tahlil qiladi. Maqolada daromad solig‘ining turlari va stavkalari, soliq imtiyozlari va chegirmalar, shuningdek, daromad solig‘ining davlat byudjetiga ta’siri ko‘rib chiqiladi. O‘zbekiston tajribasi xalqaro tajriba bilan solishtiriladi va kelajakda daromad solig‘i tizimini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Ushbu maqola daromad solig‘i tizimining samaradorligini oshirish va ijtimoiy adolatni ta’minlashga qaratilgan.